

G'azallarni tahlil qilish metodlari

Mumtoz adabiyotni o'qitish hamda ta'lim bosqichlarida qiyinchilik tug'diradi. Bu qiyinchilik va murakkabliklar quyidagilarda namoyon bo'ladi:





Aruziy tafakkur – mumtoz adabiyotimizda yaratilgan asarlarga xos vazn va qofiya qoliplariga rioya qilish, ritmika (ohang)ni his etish, qat'iy yo'sinda shakllangan obrazlar tizimi, ular o'rtasidagi munosabatlar, bu obrazlar atrofida guruhlangan poetik vositalar hamda til xususiyatlarini anglash, ramzlar va majozlar bilan fikrlash demakdir.

Mumtoz asarlarni tahlil qilish yo'llari. Obrazlar tizimi

- She'riyatining bosh mavzusi ishq-muhabbatdir. Ishqiy she'rlarda asosan uchta: **ma'shuqa** (yor), **oshiq** hamda **raqib** ishtirok etishini aytib, bu yerda obrazlar ishtiroki bilan bog'liq andazalar borligiga o'quvchilar diqqati tortiladi. Boshqa obrazlar esa asosan shu uchlikni to'ldiradi, ularning xarakteri, ruhiy holatini ochishga xizmat qiladi. Mana shu uch asosiy obrazlarga xos bo'lgan doimiy xarakter belgilari, ta'rif-tavsiflarni bilish va anglash mumtoz she'riyatni to'g'ri o'qish, tushunish va tahlil qilish garovidir. Shuning uchun har biriga alohida to'xtalib, ularning xususiyatlaridan o'quvchilarni xabardor qilish lozim.



- **Ma'shuqa** - ishqqa sabab bo'lib, oshiq ko'nglini rom qilgan, aqlini lol etgan suyukli yor. U nihoyatda go'zal. Go'zalligi unga nisbatan qo'llanadigan tashbih (o'xshatish)lar orqali ta'riflanadi: qaddi tik, adlki go'yo sarv yoki sanavbar daraxtlariga o'xshaydi, soch va ko'zi tunday qora, qoshi - hilol, yuzi oy yoki quyoshni eslatadi, lablari - g'uncha yoki la'l (qimmatbaho qizil tosh), kipriklari bamisoli o'q va hokazo.
- Aytib o'tish kerakki, Sharq she'riyatida **noziklik** go'zallikning muhim belgisi sanalgan. Shuning uchun g'azallarda yorning beli juda ingichka, og'zi behad torki, hatto ba'zan oshiq ularning bor yoki yo'qligini bilmay hayron bo'lib qoladi.
- Ma'shuqaning husnu malohati ba'zan birmabir ta'riflab o'tirilmay, go'zallikning doimiy timsollariga aylangan **gul, Layli, Shirin, Uzro, Yusuf** kabi obrazlariga ishora orqali ham ifodalanadi.



- **Oshiq** - ishqqa mubtalo bo'lgan va o'zini unutgan kishi. Ma'shuqaning shaydosi. G'azalda fikr, tuyg'u va kechinmalar oshiq tilidan ifodalanadi.
- She'rda oshiqning portreti ma'shuqa kabi chizilmaydi. Ko'p hollarda ishq, ayriliq (hijron) tufayli, yorning vafosizligi, sitami sababli ko'zi qonli yoshlarga to'laligi, qaddi bukilgani tasvirlanadi.
- U oshiqlik timsollari bo'lmish **bulbul, Majnun, Farhod, Vomiq** obrazlariga o'xshatiladi.





- ***Raqib*** - ma'shuqaning vasliga da'vogar bo'lgan boshqa bir oshiq. Raqibning portreti berilmaydi, uning kechinmalari, holati ham deyarli ifodalanmaydi. Oshiq rashk tufayli ba'zan uni itga o'xshatadi.
- Bu obraz, shuningdek, ***g'ayr, ag'yor, o'zga*** nomlari bilan ham yuritiladi. Ushbu uchlikdagi ma'shuqa va oshiq doimiy obrazlar bo'lsa, raqib timsoli g'azallarda hamma vaqt ham ishtirok etavermaydi.

**Bu uch asosiy obraz deyarli
hamma vaqt o'zgaras
xususiyatlari bilan namoyon
bo'ladilar**

- **Ma'shuq**aning odatiy xarakter belgilari: bag'ritosh, iltifotsiz, mag'rur. Oshiqqa munosabatda beparvo, unga qiyo boqmaydi, yolvorish, zorliqlariga e'tibor qilmaydi, uning cheksiz sadoqatiga javoban davomli jafo qilaveradi. Raqibga munosabati har doim ham ko'rsatilavermaydi. Ba'zan oshiqni kuydirish, unga azobni ottirish maqsadida raqibga iltifot ko'rsatib turadi:
- ***"Raqiblarga qilur la'ling tabassum,***
- ***Qonimni g'ussadin toshurmog'ing ne"***.

- **Oshiq**ning xarakter belgilari: u sevgisiga sodiq, vafodor, hamda ma'shuqa oldida zabun, xor, hijron azobi qanchalik qiynamasin, ishqdan voz kechmaydi.
Ma'shuqaga munosabati: yor har qancha azoblasa ham uni sevishdan chekinmaydi, hatto bu azoblar unga rohat bo'lib tuyuladi.
Raqibga munosabatda o'z nafratini ochiq bayon etadi:
- ***"Shum raqib ayirdi nokom o'z murodimdin meni,***
- ***Topmasun hargiz jahonda, yorab, ul badbaxt kom!"***

- **Raqib**ga xos jihatlar batafsil tasvirlanmaydi, tavsif qilinmaydi. *Ma'shuqaga munosabati* ba'zi o'rinlardagina oshiq tilidan uning ham ma'shuqaga vafodor yoki xiyonatkor ekanligi qayd etiladi: "**Ag'yorning vafosi azobi alim erur**". (Hofiz Xorazmiy) Raqibning *oshiqqa munosabati* ham uning e'tirofidan ayon bo'ladi. Ya'ni raqib ham oshiqqa ayovsiz dushman kayfiyatida: "**Raqib tishlamas erdi seni, ey Sakkokiy, Aning iticha senga e'tibor bo'lsa edi**". Shu kabi uning oshiq nazdidagi boshqa salbiy belgilari qayd etiladi.

Asosiy obrazlar atrofida guruhlangan poetik obrazlarni tanish

- Uchta asosiy obrazning atrofida ular bilan biri ikkinchisini almashtirgan holda deyarli doimo birga keladigan yordamchi obrazlar qo'llanishi ham o'quvchilarga alohida tushuntirilishi lozim.
- Ular quyidagilardir:
- **Ma'shuqa timsoli guruhi:** *Layli, Shirin, gul, sham', shoh, shu'la, oy, quyosh.*
- **Oshiq guruhi:** *Majnun, Farhod, bulbul, parvona, devona, qul, banda, faqir, telba.*
- **Raqib timsoli guruhi:** *it, tikan, Xisrav, g'ayr, ag'yor.*
- Bu poetik obrazlar she'rlarda alohida mustaqil timsol bo'lib kelmaydi, balki uch asosiy obrazning surati, siyrati, o'zaro munosabatini oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Oshiq va ma'shuqaning tashqi ko'rinishlariga ko'ra o'zaro tazodiy bog'lanishi

Ma'shuqaning tashqi ko'rinishi ifodalari:

Go'zal
Nigohi o't
Sarv qomat
Qizil yuzli
Jismoniy barkamol
v.b.



Oshiqning tashqi ko'rinishi ifodalari:

Holi zabun
Ko'z yoshi qon
Qaddi dol
Rangi sariq
Jismi zaif
v. b.

Oshiq va ma'shuqaning xarakter xususiyatiga ko'ra o'zaro tazodiy bog'lanishi

Ma'shuqaning xarakter xususiyati:

Sho'x
Shodon
Bevafo
sitamgar
v.b.



Oshiqning xarakter xususiyati:

Xokisor
Tinimsiz yorga
intiluvchi
Qayg'uga
botgan
Vafodor
Ishqda
barqaror
v.b.

Mumtoz asarlar til xususiyatlarini anglash

Asarlarning leksik xususiyatlari ustida ishlash adabiyot darslarining muhim bosqichi sanaladi. Avvaldan o'quvchilarga mumtoz asarlarning leksik qatlami asosan quyidagi uch tildagi so'zlardan iborat ekanligini singdirib borishi zarur:

a) umumturkiy so'zlar: **og'oz, ochun, qamuq, ujmoh, tamug'.**

b) arabcha so'zlar: **liqo, tamanno, shams, qamar, hayl.**

v) forscha so'zlar: **magar, shahd, gardun, rishta.**

- Arab tilidan o'zlashgan so'zlarda harakat nomi (-sh, - ish), sifatdash (-gan) qo'shimchalariga to'g'ri keladigan **ma-**, **mu-**, **ta-** hamda ko'plikni (-lar) bildiradigan **a-**, **u-** old qo'shimchalari qo'llanadi. Bular ishtirok etgan so'zlar ma'nosini aniqlash uchun ularni old qo'shimchalar o'zakdan olinadi va faqat undoshlarnigina o'qiladi. Qaysi so'z shakli chiqayotganiga qarab kerakli unlilar qo'yib olinadi. Olaylik, "**maqsad**" so'zi. Dastlab **ma-** old qo'shimchani olib tashlaymiz va undoshlarni o'qiymiz: **q s d**. Ulardan qasd so'zining shakli ko'rinib turibdi, demak, "q"dan keyin "a" unlisi qo'yiladi va **maqsad**ning ma'nosi **qasd qilish** ekani namoyon bo'ladi. O'quvchilar **madfun** so'zini eshitmagan bo'lishlari mumkin. Xuddi shu yo'l bilan ma'no chiqariladi: **ma-** olinadi, **dfn** dan iborat undoshlar qoladi va ular dafn so'zining "skeleti" ekanligi ko'rinib turibdi. **Madfun - dafn qilingan.**

- **mu-** qo'shimchasi uchun mudarris so'zini olish mumkin. Old qo'shimchadan **drs** undoshlari qoladi va o'quvchilar **dars** so'zini oson ilg'aydilar hamda bu leksik birlik bizda **dars beruvchi** ma'nosida ekanligi oydinlashadi.
- **ta-** qo'shimchali so'zlarga ham ayni yondashuv kerak bo'ladi: **taqsim - qsm - qismlash, takmil - kml - kamol**ga yetkazish, **tazallum - zlm - zulm qilish**.

Ko'plik hosil qiluvchi **a** - perefiksli so'zlar ma'nosi yuqoridagi kabi aniqlashtirilishi mumkin: axbor - xabarlar, atrof - taraflar. Lekin **u-** qo'shimchasi hosil qilgan ko'plik bilan bog'liq ikki holatni bilish kerak. Birinchisi, u shaxs oti ma'nosini beruvchi ko'plik yasaydi, bunday holda "o" unlisi bilan tugaydi va bu perefiks o'rniga **a** yoki **i** unlilarini qo'yish kerak bo'ladi. Masalan, **ulamo** so'zidagi undoshlar **lm** hech qanday so'zni keltirib chiqarmaydi. Yuqoridagi ikki unlidan birini qo'yish kerak: **alm** yoki **ilm**. Albatta, bu ko'plik ilm so'zidan bo'lib, shaxs otini yasar ekan (so'z oxiridagi "o" buning ko'rsatkichi), ilmlilar, ya'ni olimlar ma'nosida ekanligini o'quvchilar darrov payqaydilar.



- Ikkinchisi, agar “o” soʻzi bilan tugallangan koʻplik hosil qilgan boʻlsa, turdosh (koʻpincha mavhum) otning koʻpligi boʻlib, aytilganday, **a** yoki **i** unlilaridan birini bu perefiksga almashtiriladi.

- Masalan, **ulum** – Im- **ilmlar** deganidir.
Xuddi shu kabi **uqul - ql - aqllar,**
uqalo - ql - aqllilar, oqillar va h.k.

- Ba'zan **ta-** bilan hosil bo'lgan shakllardan ma'no chiqarish uchun perefiks olib tashlangach, so'z oxiriga **-at** qo'shimchasini qo'yib olish talab etiladi, yo'qsa ma'no chiqmaydi.
- Masalan, **tahrik** so'zidan old qo'shimcha olinsa, **hrk** undoshlari qoladi, ulardan keyin **-at** qo'yilsagina **harakat** so'z kelib chiqadi. Shuningdek, **tahayyur** so'zidan **ta-** ni olib, oxiriga **-at** qo'shsak, **hayrat** hosil bo'ladi va bu so'z hayratlanish degani ekanini bilamiz.
- Bu so'zlarni shu shakllarda qo'llanishi vazn va qofiya talabi bilan ham izohlanishi mashg'ulotlarning ilmiy qimmatini oshiradi.
- Mashq qildirish uchun old qo'shimchali **munojot** - **najot**, **maxluq** - **xalq**, **taslim** - **salim**, **taqdir** - **qadar**, **taajjub** - **ajab**, **Muhammad** - **hamd**, **ma'shuq** - **oshiq** kabi so'zlarni o'zagidan ma'nosini aniqlash mumkin Ko'plik shaklini aniqlash uchun **avsof** - **vasflar**, **avqot** - **vaqtlar**, **avhom** - **vahmlar**, **umaro** - **amirlar**, **ukus** - **akslar**, **ufuq** - **ufqlar** so'zlari.

- **Grammatik xususiyatlar** to'g'risida gapirganda avvalo morfologik ko'rsatkichlar suffiks va perefiks ustida ko'p ishlash tavsiya etiladi. Ularni o'quvchilar tanishi va ma'nolarini bilib olgan bo'lishlari kerak.
- Sof o'zbekcha **-man, -mon, -mam** qo'shimchalari ravishdoshning bo'lishsiz shakli + shaxs-son qo'shimchasi, ya'ni *-may + man* shakllarini beradi. Masalan, *kelman, aytmon, topmam* fe'llari hozirda *kelmayman, aytmayman, topolmayman* tarzida ishlatiladi. Misol:
 - **“Yarar jon desam yoqutingizga,**
 - **Teng etmon Zuhroni Xorutingizga”**
(Xorazmiy).
- Bu baytdagi *eng etmon* birikmasi “teng etmayman” deganidir.

- **-ki, -kim** bog'lovchi yuklamasini o'quvchilar yaxshi anglamasliklari mumkin. Ayniqsa, **-kim** bog'lovchi yuklamasi o'zi ta'kid bergan so'zdan ajratilib, keyingi misra boshida kelganda o'quvchilar uni "kim" so'roq olmoshi deb bilishadi va tahlilda ma'no chiqarolmay qiynalishadi:
- ***Chun bag'irdin so'rdum, aytur: "Andin o't tushti manga***
- ***Kim, ko'ngilga shu'la soldi ishq barqi ofati".***

(Navoiy)

- Birinchi misra oxiri va ikkinchi misra boshidagi **"Andin o't tushti manga Kim,...."** hozir tilimizda **"Undan o't tushdi mengaki..."** tarzida qo'llaniladi. Agar ikkinchi misra boshidagi **kim** bog'lovchi-yuklamani so'roq olmoshi sifatida qabul qilinsa, umuman ma'no chiqmaydi.



Kelishiklarning belgisiz qo'llanishi ham o'quvchini chalg'itadi:

“Ko'zung jon labga yetkurdi, labing jon qo'shti jonimga,

Bu ikki do'stlar ul joni mahzunim taloshibdur”.

O'quvchilar birinchi misrada ikki marta qo'llangan “jon” so'zida va ikkinchi misradagi “mahzunim” so'zida tushum kelishigi yashirin kelganligini bilsalar, baytni anglashlari oson kechadi.

- Asarlarda eng ko'p qo'llanadigan affiksoidlar quyidagilar:
- -(a)fshon – sochuvchi: anbarafshon.
- - jo'(y) – tilovchi: istovchi: balojo'.
- - oroy – bezatuvchi: anjumanoroy.
- -kash – mubtalo: balokash.
- - vash – simon: parivash.
- - angez :
 - a) keltiruvchi: nishotangez
 - b) o'xshash: bulbulangez
- - oso – -dek: parivash.
- - vor – -day: devonovor. - namo(y) – o'xshash:
- - po'sh – kiygan: gulgunpo'sh.
- - afzo – bag'ishlovchi: jonafzo
- - rez – to'kuvchi: shakkarrez.

Inversiy a

- Mumtoz adabiyotda inversiyaning arab va fors tillariga xos bo'lgan **izofa** shakli asarlarni tushunishda katta qiyinchilikka sabab bo'ladi. Izofada asosan aniqlovchi va aniqlanmishning o'rin almashinuvi kuzatiladi. – i, (yi) tutashtiruvchi unli bilan bog'lanadi. So'zlashuv nutqida ham ba'zan izofali birikmalardan foydalaniladi. O'quvchilarga tushuntirishni ana shu tanish birikmalarni izohlashdan boshlash kerak. Masalan, *oyinai jahon, ahli Andijon, ovorai jahon* kabi. Bunday birikma va jumlar ma'nosini oydinlashtirish, tushunishni yengillashtirish uchun izofadagi aniqlovchi va aniqlanmishning o'rnini almashtirib, o'zbekcha gap bo'laklari tartibiga keltirib olish kerakligi uqtiriladi.

- Ularning o'zni almashtirilganda o'zbekcha tartibda egalik qo'shimchasini qo'yib olishga to'g'ri keladi: *jahon o'ynasi, Andijon ahli, jahon o'vorasi*. Bu tushuntirildigandan so'ng baytlarga murojaat qilinadi:
- ***Ahvoli dilim aytg'ali bir mahrame topmay,***
- ***Zulmingni qarindoshu, g'amingni padar etdim.***
(Mashrab)
- Baytdagi birinchi misrada "ahvoli dilim" izofa bo'lib, so'zlarning o'rnini almashtirsak, "dilim ahvoli" tarzidagi o'zbekcha birikma yuzaga keladi va tushunish o'quvchilar uchun osonlashadi. Ba'zan aniqlovchi va aniqlanmish orasida so'z kelishi mumkinligi aytib o'tilishi kerak:
- ***"Chekardin g'am tog'in holing nechukdur?"***
- ***Bu yukdin jismi chun noling nechukdur?"***
(Navoiy)
- Bu yerda ikkinchi misradagi *chun* bog'lovchisi izofani hosil qilgan "jismi noling" birikmasining orasida kelmoqda. Jismi noling – *o'ta noziklashib ketgan jisming* ma'nosini beradi.

- Birikmalar **izofa zanjiri** sifatida qo'llangan baytlarni tushunish yanada qiyinlashadi. Oddiy izofa ikki so'zdan iborat bo'lsa, izofa zanjirida birikmada uch va undan ortiq so'z ishtirok etadi. Ularni tushunishga qulay qilish uchun o'zbekcha gap bo'laklari tartibiga keltirib olinadi. Buning uchun izofa zanjiridagi oxirgi so'zdan boshlab birinchi so'zgacha teskari o'qiladi va o'zbekchalashtiriladi. Misol:
- ***Agar gashti labi daryo qilursen,***
- ***Ko'zinga kelki ummon kerak bo'lsa.*** (Atoiy)
- Bu baytning birinchi misrasida "*gashti labi daryo*" birikmasi izofa zanjiri bo'lib, oxirgi so'zdan teskari o'qiymiz: "*daryo labi (qirg'og'i)ni gasht (sayr)*" shaklidagi o'zbekcha tartib yuzaga keladi va birinchi misra "*Agar daryo labini sayr etsang*" deya oson tushuniladi.

***Ko'rub oshufta holi zorimni ahboblar aytur:
Giriftori kamandi zulfi jonon o'ldi
o'xshaydur.
(Amiriy)***

- Ayrim hollarda zanjirli izofa to'rt so'zdan iborat bo'lishi mumkin.
- Birinchi misrada "**holi zorim**" oddiy izofa, u "**zor holim**", ya'ni zor bo'lgan ahvolim ma'nosini beradi.
- Ikkinchi misradagi "**Giriftori kamandi zulfi jonon**" izofasi to'rt so'zdan iborat zanjirdir. Bu yerda **kamand** – **sirtmoq**, **zulf** – **soch** ma'nosini beradi.
- Zanjirni ters o'qib, o'zbekcha tartib tusini beramiz: **jonon sochi sirtmog'ining giriftori** shaklidagi ifoda yuzaga keladi.
- Baytning ma'nosi: "**telbalarcha (oshufta) zor ahvolimni ko'rgan do'stlarim (ahboblar) deyishadiki: jonon sochining sirtmog'iga giriftor bo'lganga o'xshaydi**".

G'azal ma'nosini to'liqroq ilg'ash uchun unda qo'llangan she'riy san'atlarni ham yaxshi bilish kerak. Bularni bilish tahlilni osonlashtiradi.

G'azallarda quyidagi san'atlar ko'p ishlatiladi:
tashbeh, tamsil, husni ta'lil

G'azallarda baytlardagi misralar, birinchi va ikkinchi misra doim mutanosib bo'ladi. Bunda Birinchi misrada qanday holat yoki tasvir berilsa, ikkinchi misrada shuni asoslaydigan, shunga o'xshaydigan tasvir beriladi. Shu sababdan birinchi va ikkinchi misra solishtirilib, bog'lab ma'no chiqariladi

***Orazin** yopqoch, ko'zimdin sochilur har lahza yosh
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och **quyosh***

G'AZAL TAHLILI

**Ko'ngillar nolasi zulfung kamandin nogahon
ko'rgach,
Erur andoqki, qushlar qichqirishqaylar yilon
ko'rgach.**

**Ko'ngul chokin ko'zumda ashki rangin elga
fosh etdi,
Balig' zaxmini fahm aylarlar el daryoda qon
ko'rgach.**

**Ko'zum qon yosh to'kar, netib ko'ngil zaxmin
yashuraykim,
Toparlar yerda zaxmin sayd qonidin nishon
ko'rgach.**

**Bo'yolg'on qon aro jon pardasi yetgach g'ami
hajring,
Ko'ngil bog'ida bargedurki ol o'lmish xazon**

G‘AZAL TAHLILI

*Zulfung ochilib, orazi diljo‘ bila o‘ynar,
Hindubachae sho‘xdurur, suv bila o‘ynar.*

*Ul sho‘x ko‘ngul lavhin etib tiyra nafasdin
Bir tifldur, alqissaki, ko‘zgu bila o‘ynar.*

*Tong yo‘qki, ko‘zung bo‘lsa ko‘ngul birla muloyim,
Majnung‘a ajab yo‘q, agar ohu bila o‘ynar.*

**Mutanosibliklar: (1) Zulf - hindubacha, orazi
diljo‘(yuz) - suv**

(2) ul sho‘x(zulf) - tifi (bola),

ko‘ngul - ko‘zgu

(3) ko‘z - ohu, ko‘ngul - majnun

Topshiriq

**Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul,
Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.**

**O'qdayin qomatimizni qora qoshlig'lar uchun
Muttasil yo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.**

**Meni yozg'urma «sevar» debki, mening haddim emas,
Ul tamanno qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.**

**«Borma», derlar, «eshiki sort damo-dam»,
netayin,
Ko'p taqozo qiladurg'on bu ko'nguldir, bu ko'ngul.**

Tori mo'yin havasi birla qorong'u kechada

- 1. Keltirilgan misralardan turkiy, forsiy va arabiy so'zlarni topib "Tushunchalar tahlili" usulida izohlang.**
- 2. izofalarni aniqlang.**
- 3. badiiy tasvir vositalarini aniqlang.**